

МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАГ'РИКЕНГЛИК - ЖАМИАТ БАРҚАРОРЛИГИ ГАРОВИ

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI DIN ISHLARI BO'YICHA QO'MITA

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJIIY MAMLAKATLAR BILAN
DO'STLIK ALOQALARI QO'MITASI

ЎЗБЕКИСТОН XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАГ'РИКЕНГЛИК - ЖАМИАТ БАРҚАРОРЛИГИ ГАРОВИ

halqaro ilmiy-amaliy konferentsiya
materiallari to'plami



"МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЕ СОГЛАСИЕ И РЕЛИГИОЗНАЯ
ТОЛЕРАНТНОСТЬ - ЗАЛОГ СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА"
сборник материалов международной научно-практической конференции

"INTERETHNIC HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE -
A GUARANTEE TO STABILITY OF SOCIETY"
proceedings of materials of international scientific-practical conferences

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI DIN ISHLARI BO'YICHA QO'MITA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI MILLATLARARO MUNOSABATLAR
VA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN DO'STLIK
ALOQALARI QO'MITASI**

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

**MILLATLARARO
TOTUVLIK VA DINIY
BAG'RIKENGLIK – JAMIYAT
BARQARORLIGI GAROVI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami

2021-yil, 17-noyabr, Toshkent (O'zbekiston)

Toshkent – 2022

идеологией меньшинства. «Ислам – это религия, которой мирно следуют миллиарды людей, экстремизм – это политическая идеология, которую поддерживает меньшинство», – подчеркнул он¹⁵⁷.

В заключении следует отметить, что толерантность является идеалом, к которому общество должно стремиться как в отношениях между отдельными людьми, так и на уровне семьи, социальных коллективов и целых народов.

* * *

Xayriddin Berdiyev,

Toshkent davlat texnika universiteti

“Milliy g‘oya” kafedrasi dosenti,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ravshan Toshmurodov,

Toshkent davlat texnika universiteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

DINIY E‘TIQODLARDA CHORVA KULTI BILAN BOG‘LIQ ZIYORATGOHLARNING O‘RNI (ZANGIOTA ZIYORATGOHI MISOLIDA)

Yurtimizning har bir qarich joyi biz uchun qadrlı bu zamin bag‘rida uzoq o‘tmishdan sado beruvchi tarix va madaniyat mujassam. Joy nomini anglatuvchi – toponimlar xalqimiz ko‘p asrlar davomida ijod qilgan ulkan lisoniy hamda madaniy-ma‘naviy boyligidir. Toponimlarni o‘rganish asosida xalqning o‘ta qadimiy davrlardan tortib, shu kunlargacha bo‘lgan noyob kuzatishlari, tajribalari, ularning dunyoqarashi va e‘tiqodiy tushunchalarini anglash mumkin. Bu jihatni Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning quyidagi so‘zlaridan ham bilib olish mumkin: “Yurtimiz zaminidan juda ko‘p olimlar, muhaddislar, avliyolar yetishib chiqqan, ularning merosi undan ham ko‘p. Lekin tan olish kerak, bu katta manbani chuqur o‘rganmadik. Shuning uchun

¹⁵⁷ Абдина Д. А. Религиозный экстремизм: миф или реальность // Религия – наука – общество: проблемы и перспективы взаимодействия: материалы III международной научно-практической конференции 1–2 ноября 2013 года. – Прага: Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2013. – 111 с.

bu markaz qanday buyuk elligimizni yana bir bor ilmiy asoslab, xalqchil tushuntirib beradigan bo‘lishi kerak. Bu yerda milliy g‘oya jo‘sh urib turishi zarur”¹⁵⁸.

Ma‘lumki, Toshkent viloyatida aziz va muqaddas ziyoratgohlardan biri Zangiotadir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Zangi ota Ahmad Yassaviyning muridı, so‘fiy shoir Sulaymon Hakim Boqirg‘oniynıng shogirdi bo‘lgan va XII asr ikkinchi yarmi va XIII birinchi choragida yashagan¹⁵⁹.

Yana shunday diniy tasavvurlar bilan bog‘liq ziyoratgohlardan biri Nurota vohasi Oqtog‘ etagida joylashgan Zangiotadir. Bu ziyoratgoh yonida uning zavjalari nomi bilan ataladigan Anbaronasoyi ziyoratgohi ham mavjud. Toshkent viloyatidagi Zangiota ziyoratgohi va Nurota vohasidagi ikki ziyoratgoh oralig‘i 520-530 kilometr, savol tug‘iladi-ki, Oyxo‘ja Ibn Tojxo‘ja yoki “Zangiota”ning qadamlari Nurota vohasiga yetganmikan?

Tarixning qaysi davri bo‘lmasin, uning ruhiga kirish zarur. Zangi ota haqida yozilgan asarlar ko‘p, lekin ularning ko‘plari izoh talab. Bir rivoyatda aytilishicha, Amir Temurning buyrug‘iga binoan Turkistonda Ahmad Yassaviyga maqbara qurilishi boshlangan. Qurilish boshlanganining ertasi kuni qarasalar, kechagina terilgan g‘ishtlar sochilib, maqbara buzilib, poydevori qiyshayib qolgan. Ustalar qaytadan ish boshlabdilar. Bir necha kun o‘tar-o‘tmas qurilgan maqbara yana buzilib ketavergan. Shundan so‘ng amir qurilish atrofiga qorovullar qo‘yishni buyuribdi. Poylab yotgan qorovullar yarim tunda shovqinni eshitib, maqbara qurilishi tarafga qarab hayratda qolishibdi. Ne ko‘z bilan ko‘rishsinki, maqbarani qandaydir bir xo‘kiz buzayotgan emish. So‘ngra Ahmad Yassaviyning o‘zlari jiyanlari Zangiota tug‘ilgan chog‘da “jiyanimga mendan avval maqbara qurilsin”, deb vasiyat qilganlar, degan ovoza tarqalibdi. Shu voqeadan so‘ng Zangiota maqbarasi qurila boshlanibdi. Turkistondan to qurilish joyigacha bo‘lgan masofada odamlar tizilib turishib, g‘ishtlarni qo‘lma-qo‘l yetkazib berib turgan emish¹⁶⁰. Undan so‘ng Amir Temur 1395–1397-yillarda Ahmad Yassaviy qabri ustiga muhtasham maqbara qurdirgani haqida manbalarda so‘z boradi.

¹⁵⁸ <https://president.uz/uz/lists/view/4115>

¹⁵⁹ toshvil.uz/index.php?view=articles&parse=213&clean&print

¹⁶⁰ Ипак йўли афсоналари (жой номлари билан боғлиқ афсоналар). Тузувчи, наспрга тайёрловчи М. Жўраев. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 71-72; Т. Саксонов. Муқаддас жойлар – хурофот ва бидъат ўчоғи. – Тошкент: 1984. – Б. 40.

Har qanday afsona ham tarix bo'la olmaydi. Masalan, birgina Zangi ota nomining kelib chiqishi haqida turli rivoyatlar mavjud¹⁶¹. Barcha tarixiy ma'lumotlarda u zotning asl ismlari Oyxo'ja ekanligi alohida ta'kidlab o'tiladi. U kishiga esa "Zangi" iborasi bilan nisbat berilishi esa uning qora tanli bo'lganining ramziy ifodasi, deb qaraladi. Aslida, "Zang" qadimda "ulug'", "yuksak", degan ma'noda qo'llanilgan va ul zot cho'ponlarning piri "avliyo" qiyofasida gavalantirilgan. Ammo, yana bir jihat shundaki, Zangi ota o'z davrida xalq uchun halol rizq topish, mehnat qilish, Yaratgan buyruqlarini bajarishda namuna bo'lganligi ayni haqiqat. Zangiotaning dovrug'i nafaqat o'z yurti, balki Dashti Qipchoq, Sibir tomonlarga ham yetgan. Xalqimizda "Zang urdi, ya'ni bong urdi" degan gaplar ham bor. Xullas, bunday ulug' zotlar haqidagi tarixiy haqiqatni tiklayotgan ekanmiz, har holda davr ruhiga yanada chuqurroq singishimiz lozim, deb o'ylaymiz.

Shu ma'noda, tarixchi M.Is'hoqov Nurota vohasidagi Zangiota ziyoratgohi va Anbaronasoy gidronimi haqida tarixiy haqiqatni bevosita zardushtiylik dini bilan aloqador bo'lgan chorva kultiga borib taqalishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestada keltirilgan ijtimoiy voqelikka aloqador g'oyalardan biri chorvaga qaratilgan. Qolaversa, Zardusht yashagan davrda ajdodlarimiz hali yozuvga ham ega emasdilar. Shunday bo'lsada "Videvdot" kitobining 3-bobida dehqonchilik va chorvachilik xudoga eng yaqin, maqbul ish deb ta'riflanadi¹⁶². "Ey borliqning yaratguvchisi, haq! Qanday yer eng maqbul yer bo'ladi? – Xudojo'y inson uy qurgan, olov va sut bilan ma'mur qilgan, xotin-bola-chaqa, chorva bilan obod qilgan joy muqaddasdir..."

Qadim ibtidoiy jamoa xo'jalik shaklida boylikning asosiy belgisi chorva bilan belgilanganki, bu mafkuraviy jarayonlar diniy qarashlarda animizm, totemizm va fetishizm kabi diniy qarashlarda o'z aksini topgan¹⁶³. Qadimgi davlatlarda miloddan oldingi I ming yillikda chorvachilikdagi, ayniqsa qoramolchilikdagi, ayrim muhim an'ana va marosimlarlar to'g'risida ko'pgina mualliflar yozib qoldirishgan. Xususan, "Avesta"da

¹⁶¹ xatirchi-uz.narod.ru/BadrOtaTarixi.htm

¹⁶² М. Исҳоқов. Эзгу ўй, эзгу сўз, эзгу амал китоби. – Тошкент: Ўзбек музей жамғармаси нашриёти, – Б.11-12

¹⁶³ И. Жабборов Муқаддас Авеста – қадимий маънавийгимизнинг дурдонаси // "Авеста қадриятлари: замонавийлик, дин ва фалсафа" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ФТЎИК 2013. – Б.13-19.

Axuramazdaning sifatlaridan biri "podabonlik" bo'lib keladi: Shunda Xurmuzd so'z ochdi:

Mening nomim Raxshitya

O, Sodiқ Zaratushtra,

Bir unvonim Podabon

Yana bir nom – Artabon

Ya'ni bu chin – Haqdirman...

Parchadan ko'rinib turibdiki, "Yasht"lar shakllanayotgan davrlarda, ya'ni miloddan avvalgi II ming yillik ohiri – I ming yillik boshlarida o'lkamizda chorvachilikning tashkiliy shakli – chorvani poda qilib yaylovda boqish, chorvaning qo'riqlab asralishi uchun tashkiliy, balki kasbiy javobgarlik masalalari aniq yo'lga qo'yilgan¹⁶⁴.

"Bir unvonim Podabon" jumlasining Avesta matnidagi mantiqiy o'rniga kelsak, undan ijtimoiy hayotga, jamiyatga qaratilgan munosabat mazmuni sezilib turadi. Ya'ni, podabonlik ko'chma ma'no kasb etib, jamiyat, xususan zardushtlar jamiyatining Axuramazda qarmog'idaligi ta'kidlanadi. Bu haqda M.Is'hoqov manzarani qiyos qilish uchun xristianlikdagi "pastor" diniy lavozimi va uning yo'rig'idagi jamoaning "pastva" deb atalishini eslash mumkin, deb uqtiradi. Zero "pastor" va "pastva" so'zlari ham ko'chma ma'noda "pasti" – hayvonga nisbatan "boqmoq" so'zi o'zagidan yasalgan. Demak, dindagi peshvolik chorvaga nisbatan ishlatilgan atamalar bilan almashtirib qo'llash tarixan zardushtiylikda qadimiy hodisa bo'lib, xo'jalik ukkladiga xos tushunchani ijtimoiy ma'naviy hayotga tatbiq etilganidan dalolat beradi.

Axuramazda (Xurmuzd) alqovining 7-14 bandlarida xudoning sifatleri qatorida "Podabon"likdan tashqari avestocha Xshupayn iborasi keladi. Buning ma'nosi "cho'pon" demakdir¹⁶⁵. So'zning etimologik asosi "xshudan" – "jonivor, hayvon" hamda "payn" so'zi – "asrash", qo'riqlash, himoya qilishi kabi ikki o'zakdan shakllangani aniqlash mumkin. Cho'pon so'zining Avestada paydo bo'lishi va "Yasht"lar bilan bog'liqligi ya'ni bir bora tashkiliy chorvadorlikning tarixiy ildizlari qadimiylikidan dalolatdir.

Shu ma'noda Zangiotaning aynan cho'ponlarning "piri ustoz" sifatida e'zozlanishida ham mantiqiy haqiqat bor, degan xulosaga olib keladi. Anbar

¹⁶⁴ Б. Абдолниёзов, М. Исҳоқов. Авеста ва қадимги чорвачилик. – Тошкент: Хоразм маъмун академияси, 2008. – Б. 84-85

¹⁶⁵ Авеста: Яшт китоби. М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 10-11.

bibi nomi og'zaki xalq ijodida "Mehribon va saxovatli ulug' ona" timsolida muqaddas sanalgan. "Anbarona" toponimi kelib chiqish mohiyatiga ko'ra O'rta Osiyo va O'rta Sharqda islom dini kelguniga qadar keng tarqalgan ma'buda Anaxita (Naxid)ga borib taqaladi¹⁶⁶. Zangi otaning ahli ayollari Anbar bibining asli ismi shajarada yozilishicha, Rayhona va qizlari Qorasoch, uning asl ismi Oyjon bo'lib, vafotlaridan so'ng ikkovlari bir qabristonda dafn qilinganlar. Anaxita dehqonchilik va chorvachilik, hosildorlik va pishiqchilik ma'budasi hisoblanib, go'yo uning qudratiga inson va hayvonlar, qushlar va barcha jonivorlar ham bo'ysungan, deb hisoblanar edi. Ana shu ishonch – zardushtiylik dini ya'ni kishilarni va chorvani himoyat etuvchi "ona" obraziga aylandi.

Xulosa shuki, Zangiota kultining ma'naviy o'zagi diniy bag'rikenglikni ifoda etuvchi o'ziga xos ob'yekt bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlarining islomga qadar ham mavjud bo'lgan chorva kultining badiiy ifodasi kasbkor e'zozlanishini isbotlovchi dalil hisoblanadi. Bu holat qadim chorvador aholining ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan diniy va kasbkorlik an'analarning e'tiqodiy qarashlarini saqlab kelgan noyob xazinasidir.

* * *

Sanjar Normatov,

Jizzax davlat pedagogika instituti

"Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA KONFESSIYALARARO MULOQOTNING IJTIMOIY FALSAFIY AHAMIYATI

Muloqot inson va jamiyat borlig'ining tub ildizi ularni shakllanish va rivojlanish usulidir. Muloqot ta'sirida inson o'z-o'zini va boshqalarni anglab yetadi. Inson o'z-o'zi va boshqalar bilan muloqotga kirishish jarayonida hayot qiyinchiliklarini yengib o'tish, turli kundalik-amaliy, ilmiy nazariy va hokazo muammolarni hal qilish yo'llarini topadi. Xuddi shundayin, turli ijtimoiy guruhlar, millatlar, xalqlar, davlatlar, jamiyatlar, konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro samimiy muloqot asosida ular orasidagi munosabat

¹⁶⁶www.zerkalo21.uz/uik_end/zangi_ota

Odiljon Ernazarov. Bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishda dinlardagi mushtarak qadriyatlarni bilish ahamiyati (yapon musulmonlari misolida) 146

Asror Qayumov. XX asr boshlarida Janubiy O'zbekiston mintaqasidagi etnik holat 150

Mansur Boysariyev. O'zbekistondagi ozarbayjon diasporasi tarixi..... 155

Jonibek Jumayev. Diniy bag'rikenglik– jamiyat barqarorligi garovi.. 161

Baxtiyor Tursunov. Alisher Navoiy ilmiy-ma'naviy merosida bag'rikenglik tamoyili (sinergetik tahlil) 165

Irodaxon Gafurova. Turkistonda yahudiylar jamoasi..... 169

Gulnora Xudoyberganova. Xristianlikda asketik qarashlar evolyutsiyasi..... 172

Lazizaxon Alidjanova. Diniy bag'rikenglik – tinchlik va taraqqiyot garovi 176

Nurilla Turambetov. Zamonaviy jamiyatda diniy bag'rikenglik fenomeni 179

Xayriddin Berdiyev, Ravshan Toshmurodov. Diniy e'tiqodlarda chorva kulti bilan bog'liq ziyoratgohlarning o'rni (Zangiota ziyoratgohi misolida)..... 184

Sanjar Normatov. O'zbekistonda millatlararo totuvlikni taminlashda konfessiyalararo muloqotning ijtimoiy falsafiy ahamiyati 188

Jahongir Melikuziyev. Yoshlar ijtimoiylashuv jarayoni tahlili va diniy bag'rikenglikni shakllantirish masalalari 193

Elyor Alimqulov. "Ramz" tushunchasiga berilgan ta'riflar xususida... 198

Shaxzod Xatamov. O'zbekistonning bag'rikenglik rivojiga qo'shgan hissasi 203

Muxammadjon Jo'rayev. Qozog'iston Respublikasida diniy bag'rikenglik 205

Zuhriddin Sobirov. Diniy bag'rikenglik tinchlik garovi..... 210